

QORAQALPOQ RAQS SAN’ATI MAKTABI (KECHA VA BUGUN)

Ra’no Karamova

O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi

“San’at nazariyasi va tarixi” yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek raqs san’ati maktabida qoraqalpoq raqs san’ati maktabining tutgan o‘rni va ahamiyati, dolzarb masalalar, qoraqalpoq raqs san’atiga asoslangan tarixiy-ilmiy faktlar va argumentlar tatqiq etiladi.

Kalit so‘zlar: Qoraqalpoq, xoreograf, raqs, xronologiya, kompozitsiya, baletmeyster, tarix, san’at, milliy qadriyatlar, kitob.

Men nafaqat o‘zbek xalqining, balki qoraqalpoq xalqining ham farzandiman.

Sh.M.Mirziyoev,

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Tarix – ziddiyatli voqeliklardan iborat ulkan kitob. Uni har kim o‘z tafakkuri, dunyoqarashi doirasida o‘rganadi, o‘zining ko‘ngil olamidagi fikrlash mezoni bilan ta’riflaydi. Asriy an’analarga ega, sirli va sehrli qoraqalpoq milliy raqs san’ati, uning genezisi va shakllanish bosqichlari haqidagi biri –biridan go‘zal va betakror ta’riflar ham bunga misol bo‘la oladi. Har bir millat tarixi, madaniyati, san’ati, urf-odatlar, qadriyatlar va xalq og‘zaki ijodini o‘sha millatga mansub bo‘lgan odamlar qalban his qiladilar, ayricha muhabbat bilan asrab – avaylaydilar.

Ilk ildizlari eramizdan oldingi davrlarga borib taqaladigan qoraqalpoq raqs san’ati ham jahon madaniyati tarixida o‘z o‘rni va nufuziga ega. U milliy koloritga boyligi, harakatlari va ifoda usullarining o‘ta nafisligi, jo‘shqinligi, muhabbat tuyg‘ulariga, madaniy an’analarga boyligi bilan alohida ajralib turadi. “Qoraqalpoq raqs san’ati haqida so‘z ochishdan avval albatta millatning kelib chiqish tarixi, turmush tarzi, urf-odatlar haqida to‘xtalib o‘tish zarurdir”.⁵

Istiqlol sharofati ila ulkan davrlar va asrlar bilan bog‘liq tarixni o‘rganish imkoniyati tug‘ildi. Ko‘plab qadimiy qadriyatlar qayta tiklandi, barhayot an’analarga yangi hayot baxsh etildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil, 4 fevralda qabul qilingan “Raqs san’ati sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, hamda “Milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari madaniyat va san’at taraqqiyotida yangi davrni boshlab berdi.

Ma’lumki, taniqli san’atshunoslar R.Karimova, L.Avdeevalarning tadqiqotlarida o‘zbek milliy raqsi o‘zining 3 ta, ya’ni Farg‘ona-Toshkent, Xorazm, Buxoro-Samarqand maktab yo‘nalishiga ega ekanligi qayd etib kelingan. Ming afsuski, madaniyat va san’at

⁵ “Qoraqalpoqlar” birinchi kitobi, M.Nizanov, 2020 yil, 5-bet.

oliygohlarining xoreografiya bo‘limlarida ham asosan mazkur uchta maktabga oid raqslar o‘rgatiladi, xolos.

“Hamyurtlarimiz o‘zbek milliy raqs san’atining 5 ta farqli maktabi shakllanganini yaxshi biladi. Bular Farg‘ona-Toshkent, Xorazm, Buxoro-Samarqand, Qoraqalpoq, Qashqadaryo-Surxondaryo raqs maktablaridir. Bu maktablar bir-biridan o‘ziga xosligi, jozibadorligi, elementlari, harakatlarining mahalliy koloriti bilan farq qiladi”⁶.

X.Xamraevaning “O‘zbek milliy raqs san’ati tadqiqi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida qayd etilishicha, “Respublika xalq ijodiyoti va madaniy-ma’rifiy ishlar ilmiy-metodik markazi taqdim etgan “O‘zbekistonning Nomoddiy madaniy meros ob’ektlarining yangilangan **Milliy ro‘yxati**”da ham, Respublika Madaniyat va turizm vazirligi rasmiy veb-saytida ham 5 ta raqs maktabi ko‘rsatilmoqda”⁷. Mustaqillik yillarida raqsshunoslikka e’tibor nihoyatda kuchaydi, raqs tarixiga oid izlanishlarning samarasi o‘laroq, hozirgi kunda 5 ta raqs maktabi mavjudligi e’tirof etilmoqda. Demak, ta’lim jarayonida ham beshta raqs maktabiga oid harakatlar va ifoda usullari o‘rtatilishi maqsadga muvofiqdir. Yaqin kelajakda mazkur kamchiliklar o‘zining ijobiy yechimini topishiga ishonamiz.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududida tillari bir-biriga yaqin bo‘lgan o‘zbeklar, qozoqlar, qirg‘izlar, turkmanlar qoraqalpoqning og‘a-inisidek tinch va totuv yashab kelmoqda. Qoraqalpoqlar o‘z tili, milliy qadriyatlari, urf-odatlar va milliy xarakterini saqlab qolgan eng qadimiy xalqlardan biri hisoblanadi. Har bir xalqning, millatning milliy o‘zlik tuyg‘usi uning qadimiy urf-odatlar, an’anana va qadriyatlarni qay darajada bilishi va qadrlashi bilan belgilanadi. Albatta, ularning ulug‘ ajdodlaridan meros, yangi avlodlar ko‘z qorachig‘idek asrab kelayotgan qadriyatlar tizimi shakllangan.

Shunday qadriyatlardan biri ko‘p asrlar davomida shakllangan, mustaqillik yillarida boyib rivojlangan milliy raqs san’atidir. Keyingi 7 – 8 yilda qoraqalpoq raqs maktabini tom ma’noda yangi bosqichga ko‘tarish, uning milliy madaniyatimiz negizidagi nafosatga uyg‘un qadriyat sifatidagi o‘rni va maqomini har tomonlama mustahkamlash uchun barcha imkoniyatlar yaratildi.

Bizning davrimizgacha yetib kelgan manbalarga binoan qoraqalpoq raqs san’atining tarixi zardushtiylar davriga borib taqalsa-da, uning asosiy taraqqiyoti, ravnaqi XX asr o‘rtalaridan boshlangan, deyish mumkin. Dastlab 1944-1945 yilda⁸ Toshkent shahridan xizmat safari bilan Nukusga kelgan baletmeyster Ibragimov Ali Ardobus bir necha raqslarni sahnalashtiradi. Ularda zamonaviy ifoda usullari ko‘payib ketganligi uchunmi, mazkur raqslar xalq qalbiga singib ketmadi. Chunki butun bir millatning ruhiyatini aks ettiruvchi raqslarni sahnalashtirish uchun avval xalqning tarixi, turmush tarzi, milliy qadriyatlari va urf-odatlarini yaxshi bilish talab etiladi. Ali Ardobus sahnalashtirgan raqslar ko‘ngilga go‘zallik va zavq bersa-da, ular milliy qadriyatlardan yiroq edi.

6Мадиева Р. Рақсда миллатнинг руҳи бор. / “Янги Ўзбекистон” газетаси, 2020. // <https://yuz.uz/authors>
7Хамраева Х.Х. Ўзбек миллий рақс санъати терминлари тадқиқи: филол. фан. докт. ... дисс. – Бухоро., 2021;

8 “Театральное и хореографическое искусство Узбекистана” kitobi, 1966.

Oradan vaqtlar o‘tib, qoraqalpoq raqsini o‘rganishga bel bog‘lagan Petrosova Yelizaveta Artyomovna ishni folklordan boshladi. Xalqning etnografiyasini, rasm – rusumlari, urf – odatlari, marosimlarni chuqur o‘rganishga harakat qildi. “Ilme Sulatan”, “Shopan”, “Baliqchi”, “Shag‘ala”, “Nazli”, “Qirq qiz” kabi qoraqalpoq milliy raqslarini sahnalashtirar ekan, har bir harakat, holat, imo – ishoralar, ifoda uslublari, raqs liboslarining naqshlaridan tortib, ranglarigacha jiddiy e‘tibor berdi. Ba’zi manbalarda Ye.Petrosova 70 ga yaqin qoraqalpoq raqsini sahnalashtirdi, degan fikrlar ham bor. Lekin, bu ma’lumot butunlay noto‘g‘ri! Ma’lumki, har bir yangilik barqaror an‘analar doirasida ro‘y beradi, yillar davomida sayqallanib, takomillashadi. Ye.Petrosova 1955-yildan boshlab 1966-yilgacha Nukus shahrida bo‘ladi. Salomatligi yomonlashgani sababli ona yurti Toshkentga qaytib, pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanadi. boshlaydi. 1976 yil “Karakalpakskiy tanes” nomli kitobi nashrdan chiqadi. So‘ngra qoraqalpoq raqs san‘atida O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Madreymov Polat Shamshetovichni ijodiy davri boshlanadi.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, XX asrdagi qoraqalpoq raqs san‘ati tarixini uch davrga bo‘lish mumkin.

- 1) Birinchi davr Ali Ardobus Ibragimov;
- 2) Ikkinchi davr Petrosova Yelizaveta Artyomovna;
- 3) Uchinchi davr Madreymov Polat Shamshetovich;

O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Madreymov Polat Shamshetovich qoraqalpoq raqs san‘ati tarixini fundamental tarzda o‘rganar ekan, uning ildizlari nihoyatda qadimiy ekanligini isbotladi. Raqs san‘atini qoraqalpoq milliy qadriyatlaridan, xalq ruhiyati, turmush tarzi va tarixidan yiroq bo‘lgan harakatlar va holatlardan tozaladi. Birinchi va ikkinchi davr oralig‘ida raqs syujetlariga tasodifan kirib qolgan xato va kamchiliklarni tuzatdi. Qadimiy an‘anlarni to‘liq saqlagan holda, butunlay yangi fundamental qoraqalpoq raqs san‘ati maktabini yaratdi.

Yosh avlod ongu shuuriga ezigulik va nafosat, estetik-ma’naviy kamolotga intilish tuyg‘ularini singdirishda qoraqalpoq milliy raqs san‘atining o‘rni va ahamiyati beqiyos ekanligi hech kimga sir emas. Yaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish qoraqalpoq milliy raqs san‘atini yangi bosqichga olib chiqish, uning tarixini mukammal o‘rganish, tumanlar kesimida shakllangan raqs maktablarining ildizlarini aniqlash, ularni rivojlantirish, ilmiy-tadqiqot ishlarining ko‘lamini kengaytirish, sohaga yoshlarni jalb etish bugunning eng dolzarb muammolaridir. Mazkur muammolarni ijobiy hal qilishda O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti, millat fidoyisi, maktab yaratgan buyuk san‘atkor Polat Madreymovning qoraqalpoq xoreografiya san‘atini dunyoga tanitayotgan tashabbuskor, milliy qadriyatlarga vobasta milliy raqs san‘atining yetuk namoyandasi va tashkilotchisi sifatidagi faoliyati yuksak ehtiromga munosibdir.

U nafaqat tajribali xoreograf – pedagog, balki o‘ziga xos tafakkur tarzi, ustoz – shogirdlik an‘analariga sadoqati, xalq o‘tmishiga buyuk muhabbati, o‘zi yaratgan yoki qayta sahnalashtirayotgan raqslarida tarix va kelajakni uyg‘unlashtira olish qobiliyati bilan ajralib turadi. O‘zi rahbarlik qilayotgan jamoa a‘zolarining kasbiy mahoratini muntazam

oshirib borishiga jiddiy e’tibor beradi. Ularni doimiy ravishda o‘qib – o‘rganishga, o‘z ustida ishlashga, izlanishga undaydi.

Qoraqalpoq milliy raqs san’ati nazariyasini va amaliyotini puxta egallagan, uni katta mahorat ila qadimiyat ildizlari bilan uyg‘unlashtira olgan P.Madreymovning ...

kabi shogirdlari bir qator nufuzli xalqaro tanlovlarning g‘olibi sifatida qoraqalpoq raqs san’ati taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 8 avgustdagi “Qoraqalpog‘iston Respublikasida madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorida alohida qayd etilganidek, “o‘zbek, qoraqalpoq va jahon mumtoz san’ati an’analarini, teatr, musiqa, raqs milliy estrada san’atini rivojlantirish va targ‘ib qilish” 9 muhim ahamiyatga ega.

Qoraqalpoq milliy raqs san’atining qadimgi namunalari buyuk ajdodlarmizning badiiy tafakkuri va yuksak salohiyati bilan yaratilgan bo‘lib, ularni asl holida saqlanib qolishida P.Madreymov va uning shogirdlari bor kuch – hayratlarini sarflamoqdalar. Tarixiy qaror bilan milliy raqs san’atini yanada rivojlantirish bilan bog‘liq vazifalar qatorida targ‘ibotning zamonaviy va ilg‘or uslublaridan keng foydalanish, yoshlar iqtidorini har tomonlama rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan. Eng muhimi, milliy raqs san’ati tizimini takomillashtirish, malakali kadrlar tayyorlashga bo‘lgan ehtiyojni to‘la qamrab olishdan iborat. Umuminsoniy qadriyatlardan biri sifatida qoraqalpoq milliy raqs san’ati va madaniyatini dunyo xalqlariga yaqindan tanishtirish, yanada kengroq targ‘ib qilish borasida jiddiy izlanishlar olib borilmoqda.

P.Madreymov qoraqalpoq milliy raqs san’atiga oid muammolarning yechimini izlar ekan, uni madaniy merosning eng yashovchan, qadimiy, shuning barobarida doimiy harakatdagi, yanigilanishdagi ijodiy jarayon deb biladi. Hamda shogirdlari va hamkasblari hamkorligida qoraqalpoq raqs san’atining “oltin fondi”ni yaratish va boyitish, xalqaro nufuzini yanada oshirishga intiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev Qoraqalpog‘iston Respublikasiga tashrifi davomida Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatrida millatlararo totuvlikka bag‘ishlangan madaniy tadbirda qoraqalpog‘istonlik ijodkorlar, madaniyat sohasi vakillari bilan muloqotda bo‘lar ekan, ularning mehnatiga yuksak baho berdi hamda qoraqalpoq san’ati targ‘ibotiga oid amaliy ishlarni kuchaytirishni alohida ta’kidladi.¹⁰

Mamlakatimizda milliy va umumbashariy ahamiyatga molik milliy raqs san’atini yanada yuksak doiraga ko‘tarishga xizmat qiladigan, tarixiy ahamiyatga ega islohotlar amalga oshirilmoqda. Qoraqalpoq milliy raqslari - xalqning boshidan o‘tgan yaxshi – yomon kunlarni, ming asrlarga guvoh tarixini, ushalgan – ushalmagan orzu – umidlari va armonlarini, qalb iztiroblari va sevgi olovlarini go‘zal va betakror harakatlarda aks

9Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “Қорақалпоғистон Республикасида маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.ЎзА, 2021й., 8 август.

10 10 [Тинчлик ва оғзибирчилик қадри таъаннум этилди \(president.uz\)](https://president.uz)

ettiradigan jozibador san’at namunasidir. Uning tarixini o‘rganish xalqning urf - odatlari, an’analarini, buguni va kelajagini o‘rganish, tadqiq qilish demakdir.

Nafosatni, go‘zallik va ezgulikni, qadri boqiy an’analarni tarannum etuvchi qoraqalpoq milliy raqs sa’atining mamlakat madaniy hayotidagi o‘rnini va nufuzini belgilash, uning yo‘qolib borayotgan turlarini tiklash, milliy ifoda usullarini, noyob namunalarini asrab-avaylash, yanada boyitish va rivojlantirish, tizimli ravishda jahon miqyosida tanitish va targ‘ib qilish eng dolzarb vazifa hisoblanadi.

Qoraqalpoq milliy raqs san’atining tarixi, an’analari, atamalari, liboslari, bezaklari va taqinchoqlarini, ular mohiyatiga ko‘chgan millat falsafasini, qadriyatlarini “ustoz - shogird” an’analariga asoslanib, O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston xalq artisti Polat Madreymov kabi sohaning yetuk namoyandalari faoliyati doirasida o‘rganish va tahlil qilish ijobiy samara beradi, degan umiddamiz. Qoraqalpoqlar Orol dengizning yoqasida dunyoga kelgan, Orolning balig‘i bilan tishi chiqqan degan gaplar bor xalqda. Chorvachilik bilan baliqchilik ota-bobolarining kasbi bo‘lgani bilan, faqatgina mol boqish, baliq tutish bilan masala hal bo‘lmasligini ajdodlarimiz tushungan. Tarixdan ma’lumki, qoraqalpoqlar ko‘chmachi xalq hisoblangan. Turmush tarzida mol chorvachiligi, dehqonchilik, baliqchilik, hunarmandchilik bo‘yicha balandlikka ko‘tarilgan. Bunga misol tariqasida qoraqalpoqqa belgili olima va folklorist, yozuvchi Sarigul Bahadirovaning “Qaraqalpaq qanday xalq” nomli ilmiy maqolalarga hamda povestlarga ega 2017-yil nashr etilgan kitobida ko‘rishimiz mumkin.

“Ush ay qawinim”, “Ush ay sawinim”, “Ush ay qabag‘im”, “Ush ay Shabag‘im¹¹” degan jummalarni o‘qishimiz mumkin. Ya’ni qoraqalpoqlar kasbning uchta turini ota kasbi deb tan olishgan. Bular: chorvachilik, ovchilik, baliqchilik so‘ngra hunarmandchilik paydo bo‘lgan. Ushbu kasblar eng qadimgi davr kasblari hisoblangan.

Ko‘chmanchi xalq bo‘lishiga qaramasdan doimo o‘z tili, urf-odati, milliy qadriyatini, madaniyatini saqlab qolgan. Xalq o‘g‘zaki ijodiga katta e’tibor qaratishgan. Qoraqalpoqlarning shu kungacha qisman saqlanib qolgan deyarli barcha marosimlari ularning turmush tarzi, an’anaviy urf-odatlari, axloqiy g‘oyalari bilan chambarchas bog‘liq edi. Lekin qoraqalpoqlarning turmushi, urf-odatlari, axloqi, tabiiyki, ko‘p asrlar davomida – patriarxal urug‘chilik davrida ham, feodal jamiyati davrida ham shakllangan. Shuning uchun ko‘plab marosimlar vaqt o‘tishi bilan o‘zgarib, yangi mazmunga ega bo‘ldi. Eng avvalo konservativlari, shubhasiz, diniy e’tiqodlar bilan bog‘liq marosimlar - olovga sig‘inish, ajdodlarga sig‘inish, xudolarga sig‘inish - hayvonlar, ovchilik, qishloq xo‘jaligi, suv va boshqalar bo‘lib qoldi. Har holda, shuni aytishimiz mumkinki, asrlar davomida odamlar yulduzlar tushganda, oy va quyosh tutilganda, ovga, baliq oviga chiqishdan oldin bir xil marosimlarni bajarganlar. Olovga sig‘inish va ajdodlarga sig‘inish, albatta, juda qadimiy kelib chiqishi bor, lekin ular qoraqalpoqlar orasida Oktyabr inqilobiga qadar mavjud bo‘lgan. Bunga misol tariqasida aytish mumkinki, qoraqalpoqlar bemorlarni olov bilan davolagan, “O‘ttan atlatiw” (“Olovdan sakrash”), “O‘t penen alaslaw” (“Olov yordamida bemorni yovuz ruhlardan tozalash”) va boshqalar.

11 Sarigul Bahadirova “Qaraqalpaq qanday xalq” ilmiy va povest kitobi, 2017.

Betakror ifoda uslubi, raqs harakatlari, liboslari, taqinchoqlari va bezaklari bilan alohida ajralib turadigan qoraqalpoq milliy raqs san’ati katta tarixiy yo’lni bosib o’tgan. Uning tarixini o’rganish, badiiy – estetik, etnografik, lingvodidaktik, lingvokulturologik xususiyatlarini, ifoda uslublari tadqiq qilish uchun avvalo, qoraqalpoq xalqi ijtimoiy-madaniy faoliyati, turmush tarzi, an’analari, urf – odatlari, rasm – rusumlari, madaniy aloqalari haqida to’liq ma’lumotlar bazasini yaratish zarur. Binobarin, qoraqalpoq xalq raqsi o’ziga xos ritmika, harakatlar va holatlar tizimi, ifoda usullarining nafisligi va jo’shqinligi bilan boshqa qardosh xalqlar raqslaridan tubdan farq qiladi.

Muhtaram Prezidentimiz “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” kitobida to’g’ri ta’kidlaganidek, “Ilmga asoslanmagan sohaning kelajagi yo’q”. Xorij mamlakatlarida Orol muammosini o’rganayotganlar, bu borada tadqiqotlar olib borayotganlar oqimi keskin ko’paymoqda. Ularni xuddi shunday qoraqalpoq xalqi tarixi va san’atiga oid barcha detallar qiziqtiradi.

O‘zbekiston xalq artisti E.Petrosovaning “Karakalpanskiy tanes” o’quv qo’llanmasi 1976-yilda rus tilida nashr etilgan. Oradan salkam 60 yil o’tayotgan bo’lsada, uning qoraqalpoq tiliga tarjima qilinmaganligi qoraqalpoq milliy raqs san’atini o’rganish borasida ilmiy – qiyosiy tadqiqotlar olib borilmaganligini bildiradi.

«Svadebnaya», «Ribaki», «Ilme Sultan», «Chabani», «Amudarya», «Sonday kuldim», «Ayqulash», Vals «Beloe zoloto», «Qirq qiz» (sorok devushek) ushbu 9 ta raqs Yelizaveta Artyomovna Petrosovani “Karakalpanskiy tanets” kitobida keltirilib o’tkan. Bu raqslarni musiqa notasi, raqs chizmasi va liboslari haqida ma’lumot bor. Ushbu kitobda qoraqalpoq raqs maktabiga oid bo’lgan 14 ta qo’l va 5 ta oyoq holatlari ham mavjud. Gavda, bosh, kist (bilak) qul harakati, qoraqalpoq raqs harakati salomi (klyuch)lar ham yozilgan.

Oradan 35 yildan so’ng Qoraqalpog’istonga xizmati singan jurnalist va O‘zbekiston yozuvchilar ham Jurnalistlar uyushmasining a’zosi Sharap Usnatdinov tomonidan qoraqalpoq tilida 2011-yil “Polat Madreymov birinchi qoraqalpoq baletmeysteri” nomli povest-esse janrida 248-betdan tashkil topgan kitobni yozadi. Ushbu kitobda O‘zbekiston va Qoraqalpog’iston xalq artisti Madreymov Polat Shamshetovich haqida hayotiy voqealar, qoraqalpoq raqslari, “Ayqulash” qoraqalpoq davlat milliy folklor ansambli haqida ijodiy suhbatlar, intervyular, fikrlari yozilgan. Ammo ushbu kitob qoraqalpoq tilida bo’lgani uchun ushbu kitob bilan ilm shaydolari tanishishi bu muammoli masalalardan biri. O‘zbekistonda ta’lim maskanlarida ham o’rganilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.A.Petrosova “Karakalpanskiy tanes”, 1976-yil nashr etilgan.
2. Q.Jarimbetov, J.Nzamatdinov, I.Allamberganova “Qoraqalpoq folklori” 4kitobi, 2018 yil, 130 bet.
3. Sharap Usnatdinov “Birinshi qoraqalpaq baletmeysteri” 2011-yil.
4. “Qoraqalpoqlar” Murodboy Nizanov 2020 yil, 422-423 bet.
5. Sarigul Bahadirova “Qaraqalpaq qanday xalq” ilmiy va povest kitobi, 2017.